

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI

«Kino, televideniye va radio san‘ati» fakulteti

«Pedagogika va psixologiya» kafedrası

KURS ISHI

Mavzu: Iktidorli bolalar va iste‘dodli yoshlar bilan ishlash metodikasi

Bajardi: Sh.Meliqulova

Ilmiy rahbar: _____

**Mazkur kurs ishi 2012 yilning
«___» _____ dagi «___» - sonli
yig‘ilishda muhokama qilingan va himoyaga
tavsiya qilingan.**

**Kafedra mudiri: p.f.n., dotsent
Kasimova Z.H. _____**

**Toshkent – 2012
Mundarija**

Kirish.	
1. Iqtidor va iste'dod haqida tushunchalar.	
2. Iqtidor va iste'dod tushunchalarining o'rganilganlik holati	
3. Iqtidorli va iste'dodli bolalar taraqqiyotini tadqiq qilish metodi	
4. Bolalar iqtidori va iste'dodini rivojlantirish omillari.	
Xulosalar	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	
Ilovalar.	

Yurtimizda tinchlik va barqarorlik, izchil iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini faol himoya qilish, aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish kabi yo'nalishlar suveren davlatimizning adolatli va insonparvar siyosatida doimiy ustuvor bo'lib kelmoqda. Ular sirasida jamiyatning ma'naviy yuksalishi va shaxs ma'naviy kamolotiga berilayotgan e'tiborni alohida ta'kidlash lozim.

Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligidagi ertangi kun egalari bo'lgan yosh avlodning ma'naviy va jismoniy kamoloti, zamon talablariga mos bilim olishi, kasb-hunar tanlashi, qobiliyati va iqtidorini erkin namoyon qilishi va yanada rivojlantirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu o'rinda 2012 yil "Mustahkam oila yili" Davlat dasturi doirasida ham barcha sohalarda qator dolzarb vazifalar belgilanib olindi.

O'tgan yillar davomida mamlakatimizning ta'lim sohasida olib borgan faoliyati yosh avlodga zamonaviy ta'lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ongi va qalbini mafkuraviy va ma'naviy tahdidlardan ishonchli himoya qilish, ularda g'oyaviy immunitet va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalalariga qaratilgan. Shu ma'noda ta'lim sohasida ulkan moddiy va ma'naviy yangilanishlarga erishildi. Umumta'lim muassasalari kapital rekonstruksiya dan chiqarildi va ko'plab yangi zamonaviy ta'lim muassasalari qurildi hamda zaruriy o'quv-laboratoriya jihozlari, darsliklar, axborot texnologiyalari va boshqalar bilan ta'minlandi.

Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari tasdiqlandi, o'quv dasturlari optimallashtirildi hamda darsliklarning yangi avlodi yaratildi.

Olib borilayotgan ishlarning pirovardida 1995-2010 yillar davomida o'quvchilarmiz xalqaro fan olimpiadalarida matematika, fizika, biologiya, kimyo, informatika, rus tili fanlaridan xorijiy davlatlarda o'tkazilgan xalqaro olimpiada va tanlovlarda 244 nafar o'quvchilarimiz ishtirok etib, 20 ta oltin, 49 ta kumush, 88 ta bronza medallarini qo'lga kiritdilar.

Muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan fan olimpiada (9-11 sinf)lari bilan birga 2010-2011 o'quv yilidan boshlab 5-9 sinflarni qamrab olgan "Bilimlar bellashuvi" o'tkazilib, respublikamizdagi iqtidorli o'quvchilar aniqlab borilmoqda.

Iqtidorli o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish ular bilan muntazam shug'ullanishni yo'lga qo'yish maqsadida "Yozgi intellektual rivojlantirish oromgohi"lari tashkil qilindi.

1. IQTIDOR VA ISTE'DOD HAQIDA TUSHUNCHALAR

Iqtidor – bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Psixologik lug'atda "iqtidor" tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi:

- 1) iqtidor bu – faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unlashuvidir;
- 2) iqtidor bu – insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o'ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar;
- 3) iqtidor bu – aqliy potensial, ta'lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual xarakteristikasi;
- 4) iqtidor bu – tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, qobiliyatlar tabiiy asoslarining o'ziga xosligi va ularning namoyon bo'lishi darajalari;
- 5) iqtidor bu – iste'dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi.

Ushbu tavsiflardan kelib chiqqan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, biror bir faoliyatda (masalan, ta'lim, ijodiy, kasbiy, ilmiy) muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi.

Umumiy qobiliyat egalari yuqori intellektual imkoniyatlarga ega bo'lib, muammoning yoki biron-bir masalaning yechimini tezda topishi, faoliyatiga ijodiy yondashishi bilan ajralib turadi. Maxsus qobiliyat egalari esa biron-bir aniq (masalan, matematika, musiqa, rasm chizish, shaxmat o'ynash, sport) faoliyat turiga qobiliyati bo'lgan va mana shu faoliyat bilan shug'ullanishni afzal ko'radilar. Iqtidorli bolalar bu umumiy va maxsus qobiliyatlarni o'zida mujassam etgan bolalardir. Ular boshqa bolalardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadilar:

- qiziquvchanligi;
- doimo turli savollarga javob axtarishligi;

- nutqi, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishi;
- erta yoshdanoq musiqa, rasm chizish, kitob o‘qish, matematikaga qiziqishi;
- yuqori darajadagi bilish faolligi va o‘quv faoliyati;
- masalalarning yechimini topishda maqsadga intiluvchanlik va originallik;
- tafakkurning unumdorligi;

Pedagogik nuqtai nazardan umumiy va maxsus qobiliyat yosh davrlarini inobatga olgan holda muhim jihatlarga bog‘liq. Erta yosh davrlar — maktabgacha va kichik maktab yoshida iqtidor umumiy hamda universal qobiliyat sifatida ko‘rilishi va rivojlanishi mumkin. Vaqt o‘tishi bilan bu “umumiy qobiliyat” o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib ma’lum bir yo‘nalishni belgilaydi. Ayni vaqtda bu iqtidor bola tomonidan qay darajada namoyon bo‘layotganligiga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Aniq namoyon bo‘lgan, ya’ni psixolog, pedagog, ota-onalar tomonidan e’tibor berilgan qobiliyat “aktual”, atrofdagilar payqamaydigan qobiliyat “potensial” qobiliyat deyiladi. Ko‘pgina mashhur olimlar, bastakorlar, rassom va yozuvchilar (masalan, yosh V.A.Motsart, F.Galton, I.Mechnikov, K.Gauss, N.Vinner, G.Leybnits, V.Gyugo) erta yoshdayoq o‘zlarining qobiliyatlarini namoyon qilganlar. Va aksincha ko‘p hollarda bolalikda hech qanday iqtidorga ega bo‘lmagan bolalar yetuklik davrda muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin. Bu aqliy potensialga ko‘pincha atrofdagilar e’tibor bermasliklari mumkin.

Tabiiyki, har bir holatda iqtidorni payqamaslikning sabablari turlicidir. Potensial qobiliyat haqiqatdan ham ma’lum bir vaqtgacha namoyon bo‘lmagandir. Balki, ota-onalar pedagoglar va kattalar tomonidan bola qalbining nozik harakatlaridagi o‘zgarishlarga yetarlicha ahamiyat berilmagandir, intuitiv holda buni payqamagandirlar yoki bilimlari yetmagandir. Yoki aksincha, bu narsalarni tushunmaganliklari sababli boladagi buyuk potensial imkoniyatlarni sezmaganlar, va hattoki, bu ijodkorlikni, intellektual tashabbusni negativ xususiyat sifatida qabul qilganlar.

Boshqa, xususiyatlarni esa qadrliroq deb hisoblaganlar, ya’ni, hammamizga shaxsiy tajribamizdan ma’lumki, tirishqoqlik, itoatkorlik, saranjom-sarishtalik kabi

xislatlarni fikrlar originalligi, dadillik, harakatlardagi va mulohaza yuritishdagi mustaqillikdan ustun qo'yadigan ota-onalar, o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilari, rahbarlar uchraydi. Amerikalik olimlar tomonidan 400 ga yaqin taniqli odamlarning tarjimai holi o'rganib chiqilganda ulardan 60 foizi maktab ta'limi davrida jiddiy muammolarga duch kelganliklari aniqlandi. Aktual va potensial qobiliyatlar tushunchasining mavjudligi rivojlanishni oldindan prognoz qilish muammosini muhim deb hisoblaydi.

Shaxsning qanday sifatlari va xarakter xususiyatlari, fe'l-atvoridagi va faoliyatidagi fazilatlari kattalarga kelajakda bolaning buyuk olim, rassom yoki davlat arbobi bo'lishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Bu savolga javob topish birmuncha mushkuldir. Psixologlar bolaning kelajagini "bashorat" qilish imkonini beradigan qator qonuniyatlarni belgilab berganlar, lekin asoslangan prognozlar berishga hali erishilgani yo'q. Shu bilan birga jahon pedagogika va psixologiyasi sohasidagi tajriba shuni ko'rsatadiki, bolaning imkoniyatlariga ishonchning pedagoglar va ota-onalarning mahoratiga yo'g'rilganligi mo'jizalar sodir etishga qodir. Ba'zi hollarda hayotda insonga tabiat tomonidan berilgan qobiliyatdan ham ko'ra u ana shu xususiyatni qanday rivojlantira olgani muhimdir.

Ulg'aygan sari bolalarda aqliy salohiyatini o'sib borishini kuzatish mumkin. Xayotining birinchi 10 yilligida bolalar aqliy faoliyatining eng qiyin davri, ko'plab yangiliklarni o'zlashtirish, his-hayajonga to'la davr bo'ladi. Bundan tashqari bolalar yoshligi tufayli nerv sistemasi sezgir bo'ladi. Hatto oddiy hisoblagan holatlarimiz ham ularning tez qabul qilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bolalarni iqtidori turli yoshlarda namoyon bo'ladi. Agar bolaning konkret rivojlanish vaqti o'tkazib yuborilsa, bu kelajakda uning iqtidorini rivojiga to'sqinlik qiladi.

Bola iqtidorini sezgan ota-ona va o'qituvchilar, bunday bolani e'tiborsiz qoldirmasliklari kerak, chunki kelajakda u o'zini qandaydir iqtidorini ko'rsatishi mumkin.

O'z tengdoshlaridan ilgarilab ketgan o'quvchilar qiyinchilik ko'rmaydi, degan xayol noto'g'ri, bunday bolalarni uyda va maktabda ko'p qiyinchiliklar kutadi. Ko'pincha bolalar ularni aqliy faollashuvi ota-onalarning qo'rquvi va bezovtalanishiga sabab bo'ladi, asosiysi bolalarga buni bildirmaslik kerak. Boshqa oilalarda bolalariga berilgan iqtidor ularni yaxshi kelajagini ta'minlaydi. Bolalarni rag'batlantirishadi va ular bilan g'ururlanishadi. Bunday bolalarda o'ziga yuqori baho qo'yish va mensimaslik holati yuzaga kelishi mumkin. Iqtidorli bolalarni o'qitishda ehtiyot bo'lish zarur. Ular atrofdagilarni qo'llashi va tanqidiga juda sezgir bo'lishadi. Oila sharoitida ham iqtidorli bolalarni «g'alatiroq» hisoblashlari mumkin.

Shunday qilib iqtidorli bolalar aqliy salohiyatining boshlang'ich davridayoq muammolarga duch kelishadi. Ularni nafaqat uyda, balki maktabda ham tushunmasliklari mumkin. Maktabda ularni boshqa bolalar bilan birga o'qitilishi, achinarlisi ular bilgan, ularga endi qizig'i yo'q mavzularni o'qitilishi zeriktiradi. 1-sinfдан ular o'qish, yozish va hisobni biladilar, boshqa o'quvchilar alifbe va hisob – kitobni o'rgangunga qadar iqtidorli bolalar bekorchi bo'lib qoladilar. Albatta xammasi pedagog mahoratiga bog'lik, lekin qanchalik pedagog alohida yondashuv bilan butun sinfga dars o'tmasin, u kuchli o'quvchilargagina diqqat – e'tiborini qaratishi qiyin. Aqlli va faol o'quvchi o'qituvchining diqqatini berilgan vazifalarni tez va oson bajarishi bilan qaratib, o'qituvchi va tengdoshlariga og'irligi tushishi mumkin. Bunday o'quvchilardan kamroq dars so'ralishi kuzatiladi, faolligi kerak emasligini ko'rgan o'quvchi boshka predmetlarga chalg'ishi bilan o'qituvchining mamnuniyatsizligini keltirib chiqaradi. Bora – bora o'qishni sevuvchi faol bola maktabda o'zini ortiqcha sezadi va maktab unga kerakmasdek bo'lib qoladi. Muammoning sababi, iqtidorli bola bilimga chanqoqligi tufayli ko'proq ma'lumot olishni va ko'proq dars o'zlashtirishni hohlaydi, o'rta ta'lim maktabi dasturi esa u hohlagan bilimni berishga qodir emas.

Iqtidorli bolalarga alohida yondashilmasa oxir-oqibat o'rta maktab talabiga javob beradigan bo'lib qoladi. Natijada uning mustaqil fikrlashi, bilimga chanqoqligi va real imkoniyatlari e'tibordan chetda, talabsiz qoladi.

Odatda, iqtidorli bolalardan, boshqa bolalarga nisbatan ko‘proq talab qilinadi. Bunday bolalarda shu davrda tengdoshlari bilan qiyinchiliklar tug‘ilishi, boshlang‘ich maktabni tugatayotganda boshqa bolalar ularni o‘zlaridan uzoqlashtirib, hatto xafa qiladigan laqablar ham qo‘yishadi, bunday vaziyatda iqtidorli bolalar jamoadan ajralib qolmaslik uchun ulardan ortiqroq bilishi va harakatchanligini ko‘rsatmaydi.

O‘rta ta’lim maktabida o‘qishga halaqit qiladigan iqtidorli bolalarni asosiy ko‘rsatgichlaridan biri ular uchun berilgan oddiy vazifalarni bajarmasligi va o‘qishga qiziqish yo‘qligidir. Bunday bolalar o‘zlari bemalol o‘zlashtiradigan mashg‘ulotlarni kimdir boshqarishini hohlamaydilar, hatto boshqarilsa xafa ham bo‘ladilar.

Iqtidorli bolalarni o‘qitishni birgina yo‘li iqtidorli sinflar yoki maktablarni tashkil qilinishidadir. Shundagina iqtidorli bolalar maktabni tezroq tamomlab, tezroq o‘zlari hohlagan oliygohlariga kirishlari mumkin. Bu ularga oldilariga qo‘ygan maqsadlariga tezroq erishishlariga sabab bo‘ladi. Iqtidorli bolalar o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlarga erishishi, Vatanimiz kelajagi va ravnaqi uchun salmoqli hissa bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasi kattalarni tarbiya muammolariga e’tiboriga emas, balki bolalarga berayotgan e’tiboriga bog‘liqdir.

2. IQTIDOR VA ISTE'DOD TUSHUNCHALARINING O'RGANILGANLIK HOLATI

Ushbu muammoni tadqiq qilish uchun mashhur qarashlarni o'rganish muhim hisoblanadi. Dastlab psixologiya tarixidagi iqtidorli bolalar tabiatini o'rganuvchi evalyusion qarashlar ko'rib chiqiladi.

Siyosatchi, g'arbiy va ularning amaliy iqtidori haqidagi g'oyalar Arestotel asarlarida ham uchrashiga qaramay alohida fan predmeti sifatida XX-asrlarda yuzaga kela boshladi.

Iqtidorlilik muammosi boyicha ilk tadqiqotlar asr boshlarida boshlangan. Bu kabi tadqiqotlar 1905-1912 yillar mobaynida Moskva, Petrograd, Kievda o'tkazilib, bu tadqiqotlar milliy xarakterga egaligi bilan Amerika, Angliya va Nemis psixologlarining qarashlaridan tubdan farq qiladi.

Bu borada tadqiqot olib borgan psixologlar qatoriga shaxs tuzilishiga qiyosiy yondashuvni olib kirib uni rivojlantirgan G.I.Rossolimo kiritish mumkin (1910 y). G.I.Rossolimo o'zining "Bola qalbini tadqiq qilish rejasi" ishda jaqon psixologiyasida birinchilardan bo'lib bolani kuzatish sxemasini taklif qiladi.

1909-1910 yillarga kelib esa G.I.Rossolimo tomonidan iqtidorli bolalarni diagnostika qilish tizimi yaratildi. Bu tizim o'zining to'liq va aniqligi bilan ajralib turardi. Bu tizim quyidagi asosiy funksiyalarni tadqiq qilishga qaratilgan:

- a) diqqat;
- b) iroda;
- v) idrokning yaxlitligi;
- g) eslab qolish;

d) assosiativ psixologiyaning tafakkur qaqidagi qarashlariga muvofiq keluvchi assosiativ jarayonlar.

Assosiativ jarayonlarni diagnostika qilish qoyidagi sifatlarni o'zida mujassamlashtiradi:

- 1) fikrlash;
- 2) kombinasiyalashgan qobiliyatlar;
- 3) fikr tezligi;
- 4) tasavvur;
- 5) kuzatuvchanlikni boqolash.

Bu jarayonlarni o'rganish uchun eksperimental psixologiyaning asosiy manbalariga tayangan holda diagnostik masalalar ishlab chiqildi. Ushbu metodika yordamida iqtidorlik darajasining dastlabki grafigi taqdim qilindi. Shunday qilib bilish jarayonlarini diagnostika qilish va ularning darajasini baqolash asosida XX asrga kelib iqtidorlilik darajasini baholashga urinishlar boshlandi.

G.I.Rossolimo bolalarda psixosomatik tadqiqotlar olib boriladigan bolalar psixologiyasi va nevrologiyasi institutini tashkil qiladi. Uning rahbarligi ostida "Psixologiya va bola" jurnali nashr qilina boshlandi. 1912 yil G.I.Rossolimo Lomonosov jamiyatiga a'zo bolalar orasidan yuqori iqtidorli bolalarni saralab oladi.

XX asr boshlariga kelib iqtidorlilik muammosini rus pedagoglari ham tadqiq qila boshladilar ularning ilmiy-metodik maqolalarida qobiliyatlarning "etishmasligi" yetakchi sifatlarining "tormozlanishi"ni yetishmasligi haqidagi g'oyalar ilgari suriladi. Keyinchalik esa ularning tadqiqot muammolari qatoridan quyidagi jarayonlar o'rin egallay boshladi:

- iqtidorlilarni rivojlanishning ijtimoiy shartlari;
- iqtidorlik tushunchasini aniqlashtirish;
- iqtidorlikni kelib chiqish va tuzilishi.

Rus olimi V.M.Ekzemplarskiy iqtidorli bolalarni o'rganish uchun diagnostik metodika qo'llangan. U iqtidorli bolalar uchun maxsus maktablar yaratish qamda ularni o'qitish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish lozimligini taklif qilgan. 1920 yillarning boshlarida tadqiqotchilar ya'ni bu muammoni o'rganuvchilar faqatgina yaxshi taraqqiy etgan qobiliyatlarnigina o'rganishga moyil bo'lib, ular orasidagi o'zaro boqliqlikni tadqiq qilishganligini ta'kidlagan. U iqtidorlilikni faqatgina intellektual soha bilan bog'langan tadqiqotlarga o'z tanqidiy munosabatini bildirgan. U o'z ishlarida shaxs iqtidorlilikini diagnostika qilish muammosiga asosiy e'tiborni qaratgan.

1920 yillar oxiri 1930 yillarning boshlarida iqtidorlilik muammosini o'rganishga doir ishlar birmuncha jonlanganligi kuzatiladi. Jumladan, katta hqajmdagi psixologik diagnostik metodikalar, iqtidorlilikni aniqlovchi testlar ishlab chiqildi va amalga tadbiq qilindi. Bularning barchasi Yevropa, Amerika tadqiqotlari asosida amalga oshirildi.

Agar bu tushuncha Rossiyada og'qzaki o'rganilgan bo'lsa, XX asrga kelib Amerika, Angliya, Germaniyada bu muammo chuqurroq o'rganilgan. Pedagog va psixologlar orasida iqtidorlilikni tuzilish komponentlarini o'rganish kuchaydi. Masalan, Germaniyada psixikaga ko'nikish va moslashishning eng yuqori shakli sifatida qaralib, aqliy iqtidorning muqim tarkibi sifatida qoraladi.

V.Gitern buni quyidagicha izohlagan: Aqliy iqtidor-bu tafakkurni yangi talablarga ongli yo'naltirish va yangi topshiriqlar va qayot sharoitiga moslashish qobiliyatidir. Bu izoq muammoni moqiyatini ochib bergan va iqtidorlikni yangi

topshiriq sharoitlarga moslashish sharti sifatidagi muammoni yechimini topib bergan. Ushbu tavsifnoma iqtidorlilik darajasini ajratishga imkon berdi.

V.Shtern qo'shimcha qilib: "Turli sharoit va sohalaridagi yangi talablarga tez moslasha oladiganlar aqliy iqtidor egalaridir". Iqtidorlikni aqliy faoliyat bilan bog'lash natijasida bilish jarayonlarini rolini ortishga irodaviy emosional sohalar kabi individual tavsifnomalarni rolini cheklanishga olib keldi.

1912 yilda V.Shtern bolaning xronologik yoshidan qat'iy nazar uning tengqo'rlari kabi "oddiy" bola ekanini isbotlovchi matematik tenglikni ishlab chiqdi. Natijada u oddiy hisob-kitoblar orqali xronologik yosh va aqliy yosh o'rtasida aloqa borligini isbotladi: u bu ko'rsatkichni intellekt ko'effisenti deb nomladi (IQ). U bolaning intellektual taraqqiyotidagi rivojlanishi yoki orqada qolishni inobatga olib intellekt va intellektual farqlarni bola intellektual taraqqiyotini intensivligi va tempini tekshiradi. Formula quyidagicha bo'lib. **$IQ = (Aq \cdot Xq) \cdot 100$** aqliy yosh (AE) va (XE) xronologik yosh orasidagi muvofiqlik aniqlanadi.

Iqtidorlikni aniqlash uchun aqliy taraqqiyot shkalalari ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan biri Bine-Simon shkalasidir. Ushbu diagnostik shkalaning 2 ta muhim tamoyili uni yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilab beradi. Birinchisi diagnostik topshiriqlar yordamida aniqlanuvchi barcha bilish jarayonlariga integral ekvivalentlarning topilganidan iborat. Ikkinchi tamoyil esa bolaning intellektual imkoniyatlarini, intellektual taraqqiyot bilan muvofiqligini o'z ichiga oladi.

Bu esa o'z navbatida iqtidorlikni bir qator faktorlar bilan boqlab o'rganish imkonini berdi. 30 yillar boshlariga kelib shkala L. Termen tomonidan modifikasiyalangan Stenfor-Bine shkalasi Moskva, Kursk, Vorenejlarda qo'llanilib sinovdan o'tkazilgan.

3. IQTIDORLI VA ISTE'DODLI BOLALAR TARAQQIYOTINI TADQIQ QILISH METODI

Iqtidorli va iste'doli bolalar taraqqiyoti dinamikasini tadqiq qilish metodi. Iqtidorlikni tadqiq qilish L.Termen-izlanishlari orqali 1920 yillardan boshlangan bo'lsa qam unchalik uzoq tarixga ega emas iqtidorli va talantli bolalar boyicha butunjaqon ittfoqining 1- yiqilishidan keyingi 20 yillik nashr qilingan ilmiy ishlarni tahlil qilib shunday xulosaga keldik. Ushbu muammo yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar bir yoki bir nechta yosh davrlarni saralab olish metodi orqali amalga oshirilgandir. Bu metod sinaluvchilardagi iqtidorlilik va shaxs sifatlarini yuqori darajadagi ishonchlilik bilan ko'rsatib beradi. Biroq ushbu metodga muvofiq iqtidorlilikni individualigining qayot ta'sirida rivojlanishni o'rganish cheklangandir. Xujjat ma'lumotlariga ko'ra sinaluvchilarning va yaqinlarining

xotiralar ko'pincha ma'lumot berish mumkin. Bu metod longityud ma'lumotlar yiqishga asoslangan bo'lib iqtidorlilarning eksperimental guruqini osonlik bilan ajratib olinishi mumkin. qujjatlarni taqlil qilish va xotiralar bir tomondan individ iqtidorining maxsus xususiyatlarini boshqa tomondan uning muxitga, ta'lim-tarbiyaga ta'sirini tushunishga yordam beradi.

Yana bir tadqiqotchi L.Termen o'zining izdoshlari bilan birgalikda yuqori IQ ga ega bo'lgan iqtidorli bolalar bilan 40 yil davomida longityud tadqiqotini olib bordi. Bu va boshqa tadqiqotlar longityud metodining nazariy va amaliy muammolarni qayta ishlash uchun juda aqamiyatli ekanini ko'rsatdi.

Iqtidor muammosini tadqiq qilish uchun olib berilgan izlanishlarda longityud keng qo'llanilmoqda. qoidaga muvofiq bir yoki bir nechta sinaluvchi uzoq yillar mobaynida uzluksiz kuzatiladi.

Longityud metodining yutuqi shundaki, u orqali iqtidorlikning potensiali sifatida namoyon bo'lib, aynan shu potensialni qanday rivojlanishi, qaysi davrda qanday namoyon bo'lishini qayd qilib borish unga ta'sir etuvchi turli omillar o'rganish mumkin. Qolaversa longityud metodi tadqiqotlarda eksperiment guruhidan o'zining iqtidorlilik ko'rsatkichi bilan farqlanuvchi nazorat guruqini bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Longityud metodining shuncha imkoniyatlari bo'lishiga qaramay iqtidorlik muammosi boyicha olib borilgan tadqiqotlarning atigi 10% ida ushbu metod qo'llanilgan. Bu eng avvalo eksperimentlardan boshqa metodlarga qaraganda ko'p vaqt va kuch sarf qilganligi bilan boqliq. Longityud metodini qo'llash uchun sinaluvchilar soni juda ko'p bo'lishi zarur, chunki yillar mobaynida ayrim sinaluvchilar turli sabablarga ko'ra guruqdan chiqib ketishi yoki eksperiment oxirida kutilgan natijani bermasligi mumkin, oxir-oqibat kam sonli sinaluvchilarning ko'rsatkichlari aqamiyat kasb etadi.

Longityud tadqiqotlarning birinchi va eng muqim vazifasi sinaluvchilarning iqtidorlisini ajratib olishdir. Ilgarigidan farqli ravishda qozirda IQ ni o'lchashda intellektning faktorliligi boyicha ishlab chiqilgan psixologiya konsepsiyalarida tan olinmoqda. Bu bilan boqliq holda iqtidorning ham ko'p faktorliligi tan olinmoqda. Ko'pgina psixologlarning fikricha, kognitiv ahqamiyatga ega bo'lmagan shu bilan

birga intellektga boqliq bo'lmagan kreativlik iqtidorlikning faktori deb qabul qilinmoqda. qolaversa ayrim psixologlar ijtimoiy muqit omillarini oilaviy sharoit, ta'lim dasturini inobatga olish muhim ekani ta'kidlashmoqda.

Turli nazariy konsepsiyalar longityud tadqiqotlarning turli eksperiment shakllariga asos bo'lib xizmat qiladi va natijada ushbu nazariya qanchalik qaqiqatga yaqin ekanligi, uni o'zgartirishga zarurat bor yoki yo'qligi aniqlanadi.

Longityud tadqiqot uchun iqtidorli bolalarni saralashning eng mashqur mezoni bu jamiyat tomonidan uning imkoniyatlarini tan olinishidir: masalan, maktabni bitirishda yoki qandaydir ko'rik tanlovda yutuqni qo'lga kiritib, raqbatlantirishi. Saralab olingan sinaluvchilar 8-15 yil mobaynida turli so'rovnoma va intervyular orqali kuzatib boriladi (1-4 yilda 1 marta). Qo'lga kiritilgan yutuqlar qar doim qam iqtidorlilikdan dalolat bermaydi. Shuning uchun yuqoridagi saralash mezoni psixometrik metodlar: intellektual testlar, ijodiy va maxsus qobiliyatlar orqali to'ldirib, o'zgartirilib boriladi.

Iqtidorli bolalarni diagnostika qilishning asosiy tamoyili iqtidorlilik konsepsiyalari va yondashuvlarning o'zgarishi bilan o'zgarib borgan. Hozirgi kunda iqtidorlikni diagnostika qilish uchun ko'pgina testlar ishlab chiqilgan: intellektual qobiliyatlarni o'rganish uchun - Dj.Reven "Progressiv matrisalari"ning murakkablashtirilgan varianti iqtidorli o'quvchi uchun bilish qobiliyatlarining ko'p darajali testi (KRT) (K.Xeller va izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan), intellektual qobiliyatlarini ekspress- diagnostikasi metodikasi (MEDIS-6-7) (E. I. Sheblanova, I. Averina, Ye. N. Zadorina, 94). Kreativlikni o'rganish uchun Dj. Gilfordning "Noyob qo'llash ijodiy tafakkurning verbal testi" (Averina, Sheblanova, 96), P. Torrensning ijodiy tafakkur testi (TTST) (Sheblanova, 93) maxsus qobiliyatlarni aniqlash uchun testlar matematik, musiqiy, texnik, sensor, motorika uchun testlar va boshqalar (E. M. Borisova, 1987). Iqtidorning serqirra va sermazmunligini inobatga olgan qolda kompleks psixodiagnostika o'tkazish lozim ya'ni shaxsdagi intellektual qobiliyatlar maxsus qobiliyatlar va ijodiy tafakkur bilan birga shaxsning shaxsiy va motivasion xususiyatlarini o'rganish

zurur. K.Xeller, K. Perlet, V.Siervalod iqtidorlilikni kompleks tarzda tadqiq qilish uchun quyidagilarni o'rganishni taklif qiladilar:

- Intellektlar (kognitiv qobiliyatlar testi va o'qituvchining baqosi yordamida).
- Kreativlik (Dj. Gilford testi boyicha noyob usullarni, P.Torrens boyicha kreativlikni verbal iqtidorni aniqlovchi testlar va o'qituvchining baqosi yordamida).
- Ijtimoiy kompetentlik (so'rovnoma va o'qituvchining baqosi yordamida).
- Psixomotor qobiliyat (kompyuter testlari va o'qituvchining baqosi yordamida).
- San'at soqasidagi qobiliyat (o'qituvchining baqosi yordamida).
- Kognitiv bo'lmagan shaxs xususiyatlari (so'rovnomalar: bilimga tashnalik, omadga umid qilish omadsizlikdan qo'rqish xavotir, o'ziga-o'zi baqo, o'quv uslubi).
- Muqit xarakteri (oilaviy va maktab muqitini o'rganuvchi so'rovnomalar yordamida).
- Intilish (turli soqalardagi faollikni aniqlovchi, turli fandagi o'zlashtirishni ko'rsatuvchi so'rovnoma).

Longityud adqiqotlarini qayta o'tkazish olingan ma'lumotlarni to'ldirish va kengaytirish imkonini beradi. Longityud metod orqali bolalar iqtidorini uzoq yillar davomida o'rganilganligi tufayli uning yosh xususiyatlarini o'rganish imkoniyatini beradi.

Ushbu tadqiqotlar doirasida iqtidorli bolalarning intellektual ijodiy va maxsus qobiliyatlarni rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqildi. Iqtidorlilik muammosi boyicha jaxon va xorij tadqiqotchilarining ishlarini taqlil qilish shuni ko'rsatadiki, iqtidorni shaxsni ijodda o'zini universal, potensial imkoniyatlarini namoyon qilish deb tasavvur qilish keng tarqalgan. Demak:

- 1) Iqtidor tug'ma va intellektual voqelik deb tushuntiruvchi konsepsiya yangisi bilan almashdi.
- 2) Iqtidor yuqori intellektual bilan bir narsa emas, vaxolanki yuqori intellekt iqtidorlilikning muhim shartidir.

3) Iqtidorlilikni muhim komponenti kreativlikdir.

4) Iqtidor insonning barcha shaxsiy sifatlarida ko'rinadi: qiziqishlari, motivlari, qislari, irodaviy xususiyatlari va boshqalar.

5) Shaxsning ijodiy potentsiali iqtidorlilikni asosini tashkil qiladi. Shu bilan birga u qayot tarzi ijtimoiy muqitning ta'sirisiz avtomatik tarzda namoyon bo'lmaydi.

6) Iqtidorli bolalarni o'rganish uchun aqliy iqtidorning asosiy komponentlarini, rivojlanishi dinamikasini o'rganishga imkon beruvchi- longityud metodini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Iqtidor o'ziga xos individuallik bo'lishga qaramay qator umumiy xususiyatlarga qam egadir ko'zatishlar va eksperimentlar natijasida bolalar iqtidorining bir necha tiplarini ajratish mumkin.

Test metodi. Test metodi boshqa metodlardan qar qanday psixologik xususiyat yoki voqelikni sifat va miqdor jihatdan taqlil qilishga yo'nalganligi bilan farqlanadi. Shuning uchun testlarga qoyiladigan talablar muqimdir. Standartlashtirish. Testlarni standartlashtirish ularni o'tkazish va baqolashga qoyiladigan yagona normativdir. Standart: a) metodikani o'tkazish va natijalarni baqolash jarayonini umumiy me'yorlarga keltirish; b) qar bir tekshiriluvchining ko'rsatkichlari umumiy ko'rsatkichlar tizimida qanday o'rin egallashini topish uchun zarur yangi shkalani ishlab chiqish. Diagnostik testlar yordamida olingan natijalarni talqin etish uchun bu natijalar muayyan me'yor, ya'ni standart bilan solishtirilishi kerak standart bilan solishtirilgandagina tekshiriluvchining ko'rsatkichlari umumiy ko'rsatkichlar tizimida qanday o'rin egallashini aniqlash mumkin. Miqdoriy ko'rsatkichlarni olishga, mo'ljallangan testlar ballariga nisbatan muayyan standartlarni aniqlashda quyidagi amallar bajariladi:

- barcha tekshiriluvchilarning ko'rsatkichlari asosida o'rtacha ko'rsatkich topiladi;- maxsus matematik statistik amallar yordamida standart oqishish, ya'ni o'rtacha kvadrat oqishish ko'rsatkichi topiladi ()

- o'rtacha ko'rsatkichdan yuqoriga va pastga standart oqishish ko'rsatkichiga mos tarzda qadam tashlab, test natijaolarini solishtirish uchun zarur shkala - standart baqolar tizimi ishlab chiqiladi. Ishonchlilik - qech qachon absolyut

bo'lmaydi. Ishonchlilik testlarning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, test yordamida olinadigan natijalarning qanchalik barqaror ekanini bildiradi. Psixodiagnostik testlarning ishonchliligini aniqlash uchun psixodiagnostik test sinaluvchilarning muayyan guruhi bilan bir bir necha marta mazkur test yoki uning ekvivalent shakli vositasida o'tkaziladigan tekshiruvlarda aniq bo'ladi. Ushbu tekshiruvchilar turli vaqtlarda o'tkaziladi. Agar qar ikki safarda olingan natijalar to'liq mos tushsa korrelyasiya koefsentini 1,0 ga intiladi. Biroq bu qech qachon sodir bo'lmaydi va ko'pchilik testlar uchun korrelyasiya koefsentini 0,7-0,9 ni tashkil qiladi. qolaversa testning ishonchliligini aniqlash usuliga qarab parallel, retest, parchalanishiga asoslangan ishonchlilik turlari bor. Validlik yoki yaroqlilik - psixodiagnostik testlarning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, metodika o'zi nimani o'rganishga mo'ljallangan bo'lsa, o'sha narsani o'rganishga qanchalik yaroqli ekanini bildiradi. Diagnostik testlarning validligi test diagnostik o'lchovini amalga oshira olishi yoki oshira olmasligini va o'lchovni amalga oshira olsa buni qanchalik muvaffaqiyatli bajarishini ifodalaydi. Testning validligi qanchalik yuqori bo'lsa u muayyan psixodiagnostik tekshiruv uchun shunchalik yaroqli deb qisoblanadi. Biroq ko'pgina testlarning validligi odatda 0,60 dan past bo'ladi. Birinchidan, u test ishonchlilik darajasidan yuqori bo'lishi mumkinemas, ikkinchidan, maktab belgilari muvaffaqiyatli o'zlashtirishi mezon sifatida unchalik ishonchli emas, uchinchidan, motivasiya intizom ijtimoiy sharoit o'z ta'sirini o'tkazadi. Validlikning quyidagi turlari bor, mazmuniy, kriterial, konstruktiv. Demak, yuqorida biz umumiy psixodiagnostikaga oid ma'lumotlarni keltirib o'tdik, endi esa aynan iqtidorli bolalar psixodiagnostikasiga oid ma'lumotlar bilan o'rtoqlashamiz.

Ekspert bahosi metodi. Tadqiqot jarayonida psixologik iqtidorli bolalarni va nazorat guruhidagi bolalarni baholash uchun ekspertlarni taklif qiladi: ota-onalar, tarbiyachilar, musiqiy xodimlar, sinf raqbari, fan o'qituvchilari ularga stimulyar varaqa beriladi, unda bola o'z talantini ko'rsatishni mumkin bo'lgan 10 soha xarakteristikalarini beriladi: intellektual, akademik o'zlashtirish, ijodiy, badiiy, artistik, musiqiy texnik harakatli, rassomlik, ij. Ekspert har bir ko'rsatilgan

xarakteristikalarini 5 balli tizimda baholaydi. Agar bolaga qandaydir xarakter juda mos bo'lsa 5 ball, 2 ball - buning aksi bo'lsa qoyiladi. (ballar 5,4,3,2).

Anketa metodi. Iqtidorli bolalarning intellektual va ijodiy taraqqiyotini diagnostika qilish uchun ota-onalarga maxsus anketalar ishlab chiqilgan. Anketa savollarini tuzishda bolaning individual qobiliyatlarini rivojlanishi haqida turli-tuman ma'lumotlarni yiqishga asosiy e'tibor qaratiladi. Anketa o'zida bolaning jismoniy rivojlanishi, bilish faoliyati rivojlanishi, bolaning qiziqishlari, qobiliyatlari, bolada ijodiy faoliyat va qiziquvchanlikning namoyon bo'lishi, muayyan bilim, ko'nikmalar, maxsus qobiliyatlarga ega ekanligi qaqidagi savollarni mujassamlashtiradi. Anketa savollarida bola shaxsiga oid xususiyatlar borasida ham so'z yuritiladi. Muloqotchanlik, liderlikka intilish, maqsadga intilishda qat'iylik. Anglangan eqtiyojlarni o'rganish uchun bolaga V.S.Yurkevich tomonidan tuzilgan 2 ta anketa beriladi ushbu anketa 5 ta savoldan iborat va anglangan eqtiyojlar yaqqol namoyon bo'luvchi, kuchsiz va juda zaif namoyon bo'luvchi kabi darajalarda ko'rinadi.

4. BOLALAR IQTIDORI VA YOSHLAR ISTE'DODINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Psixologiya fan sifatida yangi bo'lishiga qaramay, uning tarkibi doimo insonlarni qiziqtirib kelgan. Chunki, psixologiya – bu bizning hayotimiz va u qar doim, qar qanday, qar qaerda biz bilan. Shuning uchun fanni turli muammolari yuzasidan oz bo'lsa qam aniq yondoshuvlar bordir. Bu yerda, iqtidor muammosi qam chetda qolmaydi. Bundan bir necha 10 yil avval S.L.Rubinshteyn: "Iqtidorlikni o'rganuvchi ko'pgina ishlar mavjud. Biroq, olingan natijalar bu ishga sarflangan vaqtni oqlamaydi. Bu ko'pgina tadqiqotlarning noto'g'ri ekani va ularda qo'llanilgan metodikalarning qoniqarsiziligi bilan tushuntiriladi", deb yozadi. O'tgan ko'p yillar mobaynida ushbu muammo yuzasidan ko'pgina nazariyalar yaratildi. Muammoning dolzarbligi va aqamiyati shundaki, iqtidorli bolalar bilan

"oddiy" bolalar singari emas, ulardan farqli ravishda ishlash lozim-ki, bu ulardagi qobiliyatlarni yanada rivojlanishi bilan boqliq bo'lsin. P.V.Tyulenev iqtidorli bolalar muammosini dolzarb ekanini aniq ko'rsatib bergan: ". . . ushbu muammoni qal qilish bolaning kelajagini va oilaning baxtini belgilab beradi. Ota-onalar haqiqatni bilishini istamaydi va u berkitilgan bo'lishiga qaramay ular haqiqatni bilishlari zarur". Iqtidoni aniqlashdan maqsad iqtidorlikning keltirib chiqaruvchi omillarini o'rganish, iqtidorli bolalarning psixologik, shaxsiy xususiyatlarini o'rganish qamda iqtidorli bolalar bilan ishlashning yo'l yo'riq va vositalarini egallash. Iqtidorli bolalar va ularning psixologik xususiyatlari, qobiliyat, iqtidor, talant tushunchalari haqida ma'lumotlar zaqirasini berish hamda ularni shaxsda shakllanishi borasida nazariy va amaliy bilimlar berish lozim.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar bilan ishlash metodikasi quyidagilarni inobatga oladi:

- qobiliyat tushunchasini mazmunini qamda uni shaxsda shakllanishi qaqida bilimlar zaqirasiga ega bo'lish; qobiliyat, talant, iqtidor tushunchalarini mazmunini bilish;

- bolalar iqtidori qaqidagi nazariyalarni o'rganish;

- iqtidorli bolalarni psixologik xususiyatlarini borasidagi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish;

- iqtidorilikni kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillarni qaqida ma'lumotlarga ega bo'lish;

- iqtidorli bolalar bilan ishlashning yo'l-yo'riq, usul va vositalarini egallash.

Iqtidorli bolalar bilan ishlashda psixologlar iqtidorning tuzilishini belgilaydigan asosiy omillarni bilishlari lozim. Bular quyidagilar:

- umumiy intellektual yoki aqliy qobiliyatlarning yuqori darajasi;

- bilish motivining dominantligi — boshqa motiv turlaridan ustunligi;

- yangi predmetlar, vazifalar, voqea-hodisalarga duch kelganda, muammoni qo'yilishi va yechimini topishda ijodiy faollikning namoyon bo'lishi.

Iqtidorning erta namoyon bo'lishi ikki yoshdan olti yoshgacha kuzatiladi. Bunday bolalar ikki-uch yoshdan o'qishga intiladilar, uch-to'rt yoshda o'qishni va

sanashni biladilar, besh-olti yoshda soʻzlarni va uncha katta boʻlmagan jumalarni yoza oladilar. Maktabgacha yosh davrida iqtidorli bolalar boshqalardan intellektning rivojlanish darajasi bilan ajralib turadilar. Oʻzlarining juda faolligi, koʻplab savol berishlari, qiziquvchanligi, kattalardan oladigan maʼlumotni oson eslab qolishi va qayta aytib bera olishi bilan birga, boy tasavvurga egadirlar. Iqtidorli bolalar koʻp hollarda turli hisob-kitoblarga qiziqadilar, sheʼr yoki ertaklar toʻqiydilar, musiqa asboblarini chaladilar, shaxmat oʻynaydilar, rasm chizadilar, qoʻshiq aytadilar va raqsga tushadilar. Yetti yoshdan oʻn yoshgacha boʻlgan davrda bolalar koʻp hollarda kolleksiya yigʻishga (markalar, medallar, sevimli mulʼtfilʼm va kino qahramonlarining rasmlari va xok...), qogʻoz, yogʻoch va boshqa materiallardan turli predmetlarning loyihalarini yasashga qiziqadilar. Iqtidorli bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha barcha nomaʼlum boʻlgan narsalarga va yangiliklarga nisbatan mustaqil ravishda javob axtarishda faollik koʻrsatib, kattalarga turli savollar beradilar. Bu savollarga berilgan javoblar orqali atrof olamni, voqea-hodisalarning sabab va oqibatlarining bogʻliqligini anglaydilar, shaxsiy hatti-harakatlarini ongli ravishda boshqara oladilar. 3-yoshli bolaga xos boʻlgan hislatlar:

1. Nutqi maʼno jihatidan bir-biriga bogʻlangan soʻzlardan iborat.
2. Oʻyinda rolga kiradi.
3. Shar, olma va boshqa predmetlarni chiza oladi.
4. Oʻzi yechinib kiyina oladi.
5. Kubiklarni bir-birining ustiga qoʻya oladi.
6. Tayanchsiz zinalardan oʻzi koʻtarilib, tusha oladi.
7. 4 yoshli bolalar esa, oʻz imkoniyatlarini real baholay oladilar.

Lekin, 4-5 yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek oʻzlari haqida maʼlum bir xulosani bera olmaydilar. Oʻz-oʻzini anglash layoqati katta bogʻcha yoshida rivojlanib, avval u qanday boʻlgani va kelajakda qanday boʻlishini fikrlab koʻrishga harakat qiladilar. Bogʻcha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga koʻra, bu davrni 3 bosqichga ajratish mumkin:

birinchi davr — 3- 4 yosh oralig'ida bo'lib, emotsional jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog'likdir;

ikkinchi davr — 4- 5 yoshni tashkil qilib, axloqiy o'z-o'zini boshqara olish bilan bog'liq;

uchinchi davr esa, shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatlarini shakllanishi bilan tavsiflanadi.

Shuning uchun ham maktabgacha yoshidagi bola shaxsini tadqiq qilish juda murakkab jarayondir, chunki ko'pgina shaxsni tadqiq qilish metodlari, katta yoshli odamlarga mo'ljallangan va bolani o'z-o'zini tahlil qilish imkoniyatlariga asoslanmagan. Bundan tashqari psixodiagnostika yordamida o'rganaladigan shaxs sifatleri maktabgacha tarbiya yoshida to'liq shakllanmagan va beqarordir. Bolalar psixodiagnostikasi ixtiyorida faqat maxsus proyektiv metodlar ya'ni bolani yutuqqa erishish motivlari va xavotirlanish holatlarini o'rganish metodlari mavjuddir yoki shaxs sifatlarini baholashda ekspert metodlaridan foydalanish mumkin. Bunda bolani yaxshi biladigan kattalar, tarbiyachilar, ota-onalar ekspert sifatida maydonga chiqadilar. Faqat ana shunday tarzda bolani shaxs sifatlariga baho bera olish imkoniyatlariga ega bo'lamiz. Bizga ma'lumki, intellektual testlar odamni aqliy faoliyatni rivojlanganlik darajasi va ularni alohida kognitiv protsesslarini (idrok diqqat, xayol, xotira, nutq) baholashda qo'llaniladi. Quyida maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari, ijodiy (kreativ) qobiliyati hamda bolalarda faoliyatning biror sohasidagi iqtidorni aniqlash bo'yicha bir qator testlar, shuningdek ushbu yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar hamda ota-onalar uchun maslahatlar taqdim etiladi.

Ayrim tajribalarda olingan bolalar haqida ma'lumotlarni beramiz.

Nikita-3 sinf o'quvchisi. Jismoniy rivojlangan mayda motorika va xarakat koordinasiyasi yaxshi rivojlangan, bola faol xarakatchan jismoniy mashqlari va sport oyinlarini yaxshi ko'radi. 3 yoshdan kontur ichidagi rasmlarni qirqadi va boyaydi. Bilish faolligi, nutq va intellekt rivojlangan: Nikita qiziquvchan yangilikni tez ilib oladi, "global" muammo va xodisalarga oid ko'p savollar beradi. Farosatli, mantiqiy fikirlaydi.

Nikitaning xotirasi yaxshi: u materiallarni eslab qoladi. Ixtiyorsiz diqqatning ko'lamini keng. Bola darslarda biroz sabrsizroq, u darsdan tez chalgib do'stlari bilan suqbatlashib o'tirishi mumkin, lekin bu uning o'zlashtirishi yuqori darajada. Bolaning nutqi boy va yaxshi rivojlangan. Ko'p hikoyalar oylab topadi. So'z o'yiniga usta. Nikita turli shahar va tuman olimpiadalarining doimiy ishtirokchisidir. Maktabning kuchli o'quvchilaridan biri. Nikita rasm chizishga qiziqadi. Artistik qobiliyatga ega turli badiiy tanlovlarda ishtirok etishni yaxshi ko'radi. Shahar qo'shiqlar ko'rik tanlovining qolibidir. Nikita mexribon, yumshoq ko'ngil, lekin ayrim vaqtlarda qaysar va o'z aytganini qilishga moyil. Ba'zida odamovi bo'lib xafa qilganlar bilan gaplashmaslik mumkin, lekin tez unutadi, muloqatchan. Kichik guruqlarda vaziyatga boqliq lider bo'lishi mumkin. Odamlar bilan tez chiqishadi va ularning iltimosini yerda qoldirmaydi. qaqiqatparvar o'zining noto'qri qarakatlari uchun uyat qissini tuyadi. Musiqani sevadi, yaxshi kuylaydi. Nikitaning oilasi to'liq-u yolg'iz farzand. Ota-onasi, buvi-buvasi bola tarbiyasiga ko'p vaqt ajratadi. Ular Nikitani qadrlashadi uning qiziqish va extiyojlariga e'tiborli bo'lib, unga yangi narsalar o'rgatishga intiladilar. Yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlar turli tomonli qiziqishlar xos bo'lgan uyqun tipda rivojlangan iqtidorli bolalarga xosdir. Shu bilan birga ular turli soqalarda muvofaqqiyatga erisha oladilar.

Evgeniya - 2 sinf o'quvchisi. Jenya juda harakatchan harakat qilishni yaxshi ko'radi. Gimnastika, raqs bilan shuquullanadi. Kam kasal bo'ladi. Mayda motorika va "qo'l va ko'z" ning motor koordinasiyasi yaxshi rivojlangan. U kuzatuvchanlik va ta'sirchan, yangi ma'lumotlarni qiyinchiliksiz oson o'zlashtiradi. Bilish faolligi yuqori darajada qar bir voqeani mazmunini tushunishga intiladi. Uni murakkab axloqiy muammolar qiziqtiradi: o'lim va hayot yaxshilik va yomonlik, bolalarning tug'ilishi va bular. qizaloqni tabiiy qiziqtiradi, ya'ni: u yoki bu narsalar nimadan va qanday qilinadi degan muammo qiziqtiradi. Barcha savollariga u kitob va kattalardan javob qidiradi. Jenya barcha ma'lumotlarni o'zida sinab ko'rishga intiladi. Uning xotirasi juda yaxshi bir marta eshitgan narsasini bir qancha vaqtdan so'ng qam o'zgarishsiz qaytarib aytib-berish mumkin. Qizcha test ko'rinishidagi

topshiriqlarni ham muvofaqqiyatli bajaradi. Jenyaning nutqi yaxshi rivojlangan: lug'ati boy, nuqtada murakkab grammatik qurilishlarini qo'llaydi. Hikoyalari juda original va mustaqildir. Qizcha rasm chizishga qiziqadi, uning ishlari original va qiziqarlidir. Jenya hikoyalar yozishni, she'r yozishni yaxshi ko'radi. Jenyaning umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqori. U maktabda talantli pedagog qo'l ostida balet bilan shug'ullandi, lotin Amerikasi raqs boyicha xalqaro bolalar musobaqasi g'olibasidir. O'zining keyingi kasbiy faoliyatini faqatgina ijod bilan bog'lamoqchi va kelajakda raqqoslar psixologiyasi bilan shuqullanib, musobaqalardagi raqqoslar juftligidagi stressga barqarorlik mavzusini tadqiq qilmoqchi. Ota-onasining fikricha, Jenya tarix bilan shug'ullanishni o'z do'stlarining pozisiyalarini ko'rsatishni, dramalarda ishtirok etishni yaxshi ko'radi, uning muxlislari-bu ota-onasi va do'stlaridir. Qizaloq g'ayrioddiy hikoyalar o'ylab topishga usta. Artist, yaxshi raqs tushadi, xarakatchan musiqani sevadi. Bolalar va kattalar bilan muloqatchan. Oyinlarga beriluvchan. Hamma narsani birinchi va eng yaxshi qilishga intiladi. Unga birinchi bo'lish yoqadi. U bolalarni tashkillashtira oladi. Hamma u bilan oynagisi keladi, uning do'stlari juda ko'p uni lider deb tan olishadi. Jenya tipik ekstrovertidir. Jenyaning adolatparvarligi va uni yonida boshqalarni xafa qilishlariga chidab tura olmasligi boshqa bolalarga juda yoqadi. Onasining aytishicha Jenya juda yumshoq ko'ngil va tez yiqlab yuborishi mumkin. Jenya o'ziga ishongan, o'zini sevuvchi, unga yo'naltirilgan maqtovlarni qadrlovchi qizdir. Jenyaning oilasi to'liq ta'minlangan, maqbul oila oyda qizaloq uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, maxsus-kreativ tipdagi iqtidorli bolalarda ularning maxsus qobiliyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Evgeniy-1 sinf o'quvchisi. Tanaffus va jismoniy tarbiya darsida Jenya faol emas. U sinfdagi sport musobaqalariga qiziqmaydigan o'quvchilardandir. Jenyada mayda motorika yaxshi rivojlangan: daftarga tartib bilan yozadi, meqnat darslarida uning ishlari eng chiroylisi bo'ladi, asosiysi-o'qituvchilarning ta'kidlashicha topshiriqlarni aniq bajaradi. Jenyaning nutqi yaxshi rivojlanmagan, u yoshligida ayrim qarflarni ayta olmaganligi sababli, qozirgacha nutqida nuqsonini qiyinchilik bilan o'zlashtiradi. Uni qiziqtiradigan yagona ish-maktab mashqulotlaridir. U turli

o'quv topshiriqlarini sinchkovlik bilan bajaradi. U daftarga tartib bilan, chiroyli qilib yozadi, daftar xoshiyalariga aqamiyat beradi. O'qish darslarida uning og'zaki mantiqiy javoblari ajralib turadi. Matematika darslarida "topshiriqlarni o'qiy oladi" qolaversa zaruriy ma'lumotlarni anglab, ajratib oladi: u ayrim qolatlarni isbotlab o'zini tekshirishni yaxshi ko'radi; matematik operasialarni boshqalardan yaxshiroq tushunadi. Maktabda rasm darslarida yaxshi rasm chizadi, lekin uyda rasm chizish bilan shuqullanmaydi. Maktab dasturini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan narsalarnigina o'qiydi. O'g'il bola samimiy, lekin muloqatchan emas. U o'z yaqinlariga kam e'tibor qaratadi. Maktabda ko'proq darslar bilan band bo'ladi.

Kam hollarda u darsda to'polon qilishi mumkin va pedagoglardan biri bunga e'tibor bersa xayron bo'ladi. U sinfdagi eng bosiq va namunali o'quvchi emas.

Oilasi noto'liq ota-onasi 5-yil avval ajrashishganiga qaramay bir xonadonda yashab bir-biriga yaxshi munosabatda bo'ladilar. Onasi o'g'lining rivojlanishi uchun barcha moddiy sharoitlarni yaratishga intiladi: uyda kitoblar rivojlantiruvchi oyinlar diafilmlar kolleksiyasi ko'p. Uyda it bor lekin Jenya unga kam vaqt ajratadi. Keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki, differensiallashmagan tipdagi iqtidorga ega bo'lgan bolalarda intellekt va kreativlikning o'rtacha taraqqiyoti kuzatiladi. Psixodiagnostika metodlari har bir shaxs, ayniqsa o'qituvchi iqtidorli bola qaqida tushunchaga egadir bu tasavvurlarni shakllanishiga bizning turli bolalar bilan muloqotda bo'lishimiz, ularni kuzatishimiz va o'zaro qiyoslashimiz asos bo'lib xizmat qiladi. Lekin, bu tasavvurlar sub'ektivlikdan yiroq emas. qolaversa, iqtidorlilik qaqidagi tasavvurlar jamiyat eqtiyojiga boqliq qolda o'zgarib turadi. Turli tarixiy davrlarda iqtidorlilikning turli ko'rinishlari bo'lgan: qadimda jangovor qobiliyatlar qadrlangan. O'rta asrlarda qarb falsafasida mantiqiy fikrlovchi e'zozlangan bo'lsa, bizning davrimizda muammoni qal qilishda yangilikka, noan'anaviylikka intilish qayotiy chigalliklarni yecha olish qobiliyati tushuniladi. Agar biz 4 yoshli bolani mustaqil kitob o'qiyotganini, 5 yoshli bolani mashinkada o'zining hikoyalarini terayotganini, 9 yoshli bolani oliy matematika tenglamalarini yechayotganini ko'rsak, ularning iqtidorlilikiga shubqa qilmaymiz.

Shunday ekan diagnostika nima uchun kerakq Axir, qayratlarni isbotlash uchun emas-ku. Unutmaslik kerakki, boladagi iqtidorning namoyon bo'lishi uchun muayyan sharoit kerak va ular borasida eng muqimi - iqtidorni baqolay oladigan, ko'ra oladigan, uni namoyon qilishga yordam beradigan insondir. Bu ilk bolalik davridan muqim o'ringa egadir. Agar bola erta o'z tilida gapira boshlasa (gu-gu, ga-gu), qiziquvchan bo'lsa, muqitni faol o'rgansa, lekin bu intilishlar kengaymasa, to'xtab qolsa, bu odatda erta namoyon bo'lgan iqtidorning rivojlanmayotganidan dalolat beradi. Bunday qollar maktab yoshida qam kechishi mumkin. Demak, bola iqtidori qaqida gapirganda faqatgina faoliyat natijalariga u yoki bu soqadagi yutuqlariga qaramaslik kerak, chunki iqtidorli bolalarning o'z qobiliyatini namoyon qilish uchun imkon bo'lmagan bo'lishi mumkin. Shuning uchun qam iqtidorli bolalarni izlash, ularning individual yosh, shaxsiy xususiyatlarini psixodiagnostika qilish zarur. qar qanday soqa kabi psixodiagnostika qam yuqori malakani talab qiladi. qozirda psixodiagnostika maktab amaliyotiga keng kirib borayotganligi bois uning metod va yo'l-yo'riqlari bilan o'qituvchilar, ota-onalarni tanishtirib borish zarur. Psixodiagnostika lotina so'zdan olingan bo'lib, shaxs individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish va o'lchash metodlarini ishlab chiquvchi soqasidir. Bunday metodlar qatoriga testlarni kiritish mumkin. dastlabki testlar bundan bir necha ming yillar ilgari qadimgi madaniyatda mashqur bo'lgan. qarbiy, zobit, devonbegi bo'lishga talabgor bo'lgan barcha testdan o'tkazilgan. Masalan, qadimgi indeyslarda katta ayiq yulduzidan "ikkitalik yulduzni" ko'ra olgan kishi ovchilik bilan shuqullanishi mumkin bo'lgan (ko'z o'tkirligiga test). qadimgi Xitoyda oliy davlat lavozimlarida ishlashga imtixon topshirayotganlarning qar biri she'r yozishni bilishi lozim bo'lgan (ijodiy qobiliyatlar testi). Turli sinovlar yordamida munosibini tanlash xalq ertaklarida qam o'z aksini topgan. Masalan K.Gossining mashqur ertagida malika Turandot o'ziga munosib qalliq tanlash uchun 3 ta topishmoq beradi. Biroq, psixodiagnostika mustaqil fan sifatida xorijda X1X-XX asrlarda tan olindi."Tafakkur operasiyalarini miqdor jiqatdan aniqlash"ga (F.Galton) urinishlarning boshlanishi psixodiagnostikada intellekt testlari bilan bir qatorda shaxsning boshqa psixologik xususiyatlari, shaxslararo munosabatlarini

o'rganuvchi testlar kirib keldi. Parallel ravishda psixodiagnostikaning statistik apparati ishlab chiqildi: korreksion, faktorli, dispersion taqlillar va boshqalar XX asr o'rtalariga kelib qozirgi zamon testlari yaratildi. Kuzatish metodi. Iqtidorli bolalarga yondoshishida ularning individual xususiyatlarini kuzatishimiz qech narsaga erishib bo'lmaydi. Kuzatish metodining yutuqi shundaki u tabiiy sharoitlarda olib boriladi. Ob'ektni uni o'ziga bildirmasdan kuzatish mumkin. Ushbu metodning yuzaga kelishida M.Y. Basovning xizmatlari katta. U kuzatish ob'ektiga nisbatan munosabatga ko'ra kuzatuvning 3 tip ustanovkasini ajratgan: 1 tip ustanovka - kuzatuv jiddiy maqsad asosida amalga oshirilib, faqatgina zarur sifatlarga inobatga olinib, qolganlariga e'tibor qaratilmaydi. 2 tip ustanovka - kuzatuvchi avvaldan qabul qilingani nazardan qoli bo'lib, kuzatiluvchi haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish. 3 tip ustanovka - qandaydir tayyorgarlik bo'lmaganda va ob'ekt diqqat markaziga kelish bilan kuzatuv boshlanadi. Keyin esa olingan natijalar asosida iqtidorli bolalarning dastlabki tavsifnomalari tuziladi. A.F. Lazurskiy ishlarida tavsifnomalarni rasmiylashtirishning 2 uslubini uchratish mumkin: ma'lum ketma-ketlik asosida ma'lumotlar tekshiruvi tuziladi, tavsifnoma oxirida - rezyume beriladi, tadqiqotchi avval keltirilgan sifatlarni emas, ayni vaziyatlarda yaqqol ko'ringan xislatlarni faktlar asosida isbotlab, ilgari surishi kerak.

XULOSALAR

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar bilan ishlash metodikasi yuzasidan quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Iqtidor va iste'dod belgilari - bu iqtidorli boldaning real faoliyatida namolyon bo'luvchi va uning qarakatlarini kuzatish natijasida baholanuvchi xususiyatdir. Iqtidorlik belgilari faoliyatni amalga oshirish darajasi bilan bog'liqdir. Iqtidorlik belgilarini muhokama qilishdan avval xoxlayman va "qila olaman" tushunchalarini muhokama qilish kerak. Shuning uchun xam iqtidorlik belgilari iqtidorli 2 muhim jihatini o'zida mujassam etadi: instrumental va motivasion instrumental-bu uning faoliyati usulini xarakterlaydi. Motivasion bolaning faoliyatining u yoki bu tomoniga, qolaversa o'z faoliyatiga munosabatini xarakterlaydi.

2. Iqtidor va iste'dod tushunchalarining o'rganilganlik holatida shaxs faolligi qanchalik bo'lsa iqtidor ko'rinishi qam shunchadir. Shu bilan bir qatorda shuni ta'kidlash joizki, bularninig barini mazmun jihatda yirik guruxlarga birlashtirib klasifikasiyalash mumkin. qar bir faoliyat guruxi faoliyatni muvoffaqqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan muayyan bir qobiliyatlar guruxiga extiyoj sezadi. Ushbu yondashuv natijasida AqSh ta'lim qo'mitasi 6ta soqani ajratib ko'rsatadi: intellektual, akademik intilishlar, ijodiy tafakkur, muloqot va liderlik,

badiiy faoliyat, psixomotor qobiliyatlar. "Maxsus qobiliyatlar" atamasi tadqiqotlardagi testologik yunalishida intellektni o'lchash birinchi o'ringa chiqqanida kirib keldi. Badiiy, musiqiy, texnik va boshqa shu kabi maxsus qobiliyatlar IQ ga qo'shimcha sifatida ko'rilgan.

3. Iqtidorli va iste'dodli bolalar taraqqiyotini tadqiq qilish metodlari Iqtidorlilikni quyidagi mezonlarga binoan turlarga ajratish mumkin: Faoliyat turi va uning psixik soqadagi o'rniga ko'ra turlari; shakllanganlik darajapsiga ko'ra turlari; namoyon bo'lishiga ko'ra turlari; turli faoliyat turlarida namoyon bo'lishi kengligiga ko'ra turlari hamda yosh davr taraqqiyoti xususiyatlariga ko'ra turlari.

4. Bolalar iqtidori va iste'dodini rivojlantirish omillari iqtidorli bolalarni aniqlash juda murakkab jarayon bo'lib mutaxassislardan yuqori malakani talab qiladi. Psixodiagnostika metodlari qar bir shaxs, ayniqsa o'qituvchi iqtidorli bola qaqida tushunchaga egadir bu tasavvurlarni shakllanishiga bizning turli boallar bilan muloqotda bo'lishimiz, ularni kuzatishimiz va o'zaro qiyoslashimiz asos bo'lib xizmat qiladi. Lekin, bu tasavvurlar sub'ektivlikdan yiroq emas. qolaversa, iqtidorlilik qaqidagi tasavvurlar jamiyat eqtiyojiga boqliq qolda o'zgarib turadi. Turli tarixiy davrlarda iqtidorlilikning turli ko'rinishlari bo'lgan: qadimda jangovor qobilyaitlar qadrlangan. O'rta asrlarda qarb falsafasida mantiqiy fikrlovchi e'zozlangan bo'lsa, bizning davrimizda muammoni qal qilishda yangilikka, noan'anaviylikka intilish qayotiy chigalliklarni yecha olish qobiliyati tushuniladi. Agar biz 4 yoshli bolani mustaqil kitob o'qiyotganini, 5 yoshli bolani mashinkada o'zining qikoyalarini terayotganini, 9 yoshli bolani oliy matematika tenglamalarini yechayotganini ko'rsak, ularning iqtidorigi shubqa qilmaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 47 b.
2. Karimov I. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – 64 b.
3. Karimov I. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: Sharq, 1999. –181 b.
4. Karimov I. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T. 6. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998. – 429 b.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – 430 b.
6. Karimov I. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – 176 b.
7. Godfrua J. Chto takoye psixologiya: V 2-x t. T.1. Per. s frans. M., Mir, 1992. -496 s.
8. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. T.: 2000, 185 b.
9. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T.: 1999, 94 b.
10. Drujinina V. Psixologiya. Uchebnik. Piter, 2004.
11. Bolotova A.K, Makarova I.V. Prikladnaya Psixologiya: Uchebnik dlya vuzov.- M.Aspekt Press, 2002 – 383 s.

12. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiY. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
13. G'oziyev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
14. Vedenskaya L.V, Pavlova L.A. Delovaya retorika: uchebnoye posobiye dlya vuzov.- M.:IKS "MarT", 2004-512 s.
15. Nemov R.S. Prakticheskaya Psixologiya Poznaniye sebya: Vliyaniye na lyudey:Posobiye dlya uch-sya-M:Gumanit. Izd.Sentr VLADOS, 2003, - 320 s.
16. www.expert.psychology.ru
17. www.psychology.all.ru
18. www.psychology.net.ru

ILOVALAR

1-ilova



1-rasm. Intellektual oromgohda iste'dodli bolalar bilan ishlash jarayoni.

2-ilova



2-rasm. Intellektual oromgohda iqtidorli bolalar bilan ishlash jarayoni.

